

Date: 19th July-2026

IJTIMOIIY-DEMOGRAFIYANING O'ZGARISH SABABLARI VA UNING
TA'LIM TIZIMIGA TA'SIRI

Mirzadjanov Azim Xakimdjanovich

O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi Mexnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektori

Annatatsiya: Maqolada ijtimoiy-demografik omillarning ta'lim xizmatlariga bo'lgan ta'sirini o'rganish va ta'lim xizmatlariga bo'lgan talab darajasi, sifati va miqdorining demografik ko'rsatkichlar to'plamiga bog'liqligini asoslashdir.

Kalit so'zlar: Demografik omil, ta'lim xizmatlari, aholi soni, aholi zichligi, tug'ilish darajasi, migratsiya, aholi salomatligi.

Abstract: The article examines the impact of socio-demographic factors on educational services and substantiates the dependence of the level, quality and quantity of demand for educational services on a set of demographic indicators.

Key words: Demographic factor, educational services, population, population density, birth rate, migration, population health.

Jahonda aholi muayyan ijtimoiy hayot tarziga bo'ysunishi tufayli, ijtimoiy-demografik jarayonlar ham muayyan ishlab chiqarish usuli va ishlab chiqish munosabatiga bog'liq bo'ladi. Aholi murakkab ijtimoiy va tabiiy rivojlanish mahsuli bo'lib, turli omillar zaminida ko'payadi. Bu jihatdan ijtimoiy-demografiya iqtisod, sotsiologiya, geografiya, tibbiyot, tarix fanlari tahlil mavzuiga yaqin bo'lib, ularning yutuqlaridan foydalanadi, ayni vaqtda, ularga muhim ma'lumotlar beradi.

Aholining qarish jarayoni tobora ko'proq mamlakatlarni qamrab olib, global muammoga aylanib borayotgan bir paytda O'zbekistonda demografik vaziyatning tiklanish jarayoni davom etmoqda. So'nggi besh yilda tug'ilishning keskin o'sishi mamlakatimizda demografik o'sish bo'lsada, ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Ushbu muammolarning oldini olish, uni hal etish bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi.

2026 йил 1 январь ҳолатига Ўзбекистон Республикасининг доимий аҳолиси сони **38 236 704** кишига етган бўлса, 2025 йил 1 январь ҳолатига 37 543,2 минг нафарни ташкил этган. 2024 йил давомида аҳоли 743,4 минг кишига ёки 2,0 фоизга кўпайган, 926 422 нафар бола туғилган ва табиий ўсиш 752 009 нафарни ташкил этган. Бундай юқори табиий ўсиш таълим тизимиغا ҳар йили янги ва катта контингент кириб келиши давом этишини аңглатади. Демак, қарорлар мавжуд ўқувчилар сонига эмас, камида 5–10 йиллик демографик прогнозга таяниши керак.

O'zbekiston doimiy aholisi 2025-yilda har bir oyda o'rtacha **57,1** ming kishiga, har kuni esa **1,9** ming kishiga ko'paygan [1]. 2026-yil boshiga aholi soni **38 mln 236,7** ming kishiga yetgan. O'sish o'tgan yilning mos davriga nisbatan **1,8** foizni tashkil etadi.

Шунингдек:

2025-yilning har bir oyida o'rtacha **57,1** ming kishiga oshgan.



Date: 19th July-2026

Har bir kunda doimiy aholi soni o'rtacha **1,9** ming kishiga ko'paymoqda.

2026-yil 1-yanvar holatiga O'zbekiston Respublikasi aholisi soni **38 mln 236,7** ming kishiga yetdi.

2026-yil 1-iyun holatiga ko'ra doimiy aholi **39 mln 47,3** ming kishini tashkil etgan.


Respublikamizning doimiy aholisi soni o'tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda **1,8 %** ga oshgan.

Shundan:

Ayollar soni – **19 281,1** ming kishi;

Erkaklar soni – **19 766,1** ming kishi. [1, 2]

2024 yilning 1 oktabr holatiga doimiy aholi tarkibidagi erkaklar soni ayollar sonidan 263,6 ming kishiga ko'p.



Aholining bunday o'sishi asosan o'lim darajasining nisbatan pastligi va tug'ilishning yuqori darajasi bilan bog'liq.

Mamlakatimiz aholisi 2024 yil boshidan buyon 555,6 ming kishiga ko'paygan.

O'zbekiston aholisi 2024 yilning har bir oyida o'rtacha 61,7 ming kishiga oshgan.

2024 yilning har bir kunida doimiy aholi soni o'rtacha 2 ming kishiga ko'paymoqda.

1920 yilda mamlakat hududida 4,4 million kishi yashagan bo'lsa, hozirga kelib ular soni 37,4 mln kishiga ko'paygan. Bu 100 yil ichida aholi soni 8,5 baravarga oshganini ko'rsatadi.

✓ O'zbekiston Respublikasi doimiy aholi soni bo'yicha MDHda uchinchi o'rinda.

✓ O'zbekiston tug'ilish bo'yicha MDHda birinchi o'rinda.

✓ O'zbekiston Respublikasi aholi soni bo'yicha dunyo mamlakatlari o'rtasida 41 o'rinda qayd etilgan.



Date: 19th July-2026

Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2021 yilda tug'ilganlar soni 905 ming, 2022 yilda 932 ming bolani tashkil etdi. 2023 yilda esa respublika bo'yicha 962 mingta tirik tug'ilish holatlari FHDYo organlarida qayd etilgan. Bu degani 2023 yilda qariyb 1 million bola tug'ildi degani. Bular 2-3 yildan keyin bolalar bog'chasiga boradi, 2028-2030 yillarda 1 sinfga chiqadi. Bugungi kunda 10 mingdan oshiq maktablarimiz faoliyat yuritayotgan bo'lsa, har-bir maktabga 100 ga yaqin o'quvchi boradi, bu 3-4 ta sinf degani.

Biz bunga tayyormizmi? Zamonoaviy maktablar, shinam sinfxonalar, salohiyatli pedagoglarimiz yetarlimi?

Shu o'rinda bir ma'lumotni aytib o'tmoqchiman, Ijtimoiy tarmoqlarlardan ma'limki, Yaponiyada tug'ilish darajasi past bo'lgani uchun o'rta ta'lim maktablari yopilmoqda.

Demografik prognozlariga ko'ra, 2030 yilgacha tug'ilganlar soni bir xil darajada (o'rtacha 900-950 ming), aholi soni esa 41 million kishidan oshadi. 2030 yilga borib aholining yosh tarkibidagi o'zgarishlar natijasida 18 yoshgacha bo'lgan yoshlar va mehnatga layoqatli yoshdagi kattalar soni mos ravishda 2,4 million va 1,4 million kishiga ko'payishi kutilmoqda.

Aholi sonining o'sishi birinchi navbatda sog'liqni saqlash va ta'lim tizimlariga o'z ta'sirini o'tkazadi. Demografik omillardan samarali foydalanish inson kapitalini rivojlantirishga sarmoya kiritishni talab qiladi.

Masalan, 2023-yil boshida, 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalar soni 2925,2 ming nafarni tashkil etdi, kutilayotgan prognozlariga ko'ra, 2026 yilga kelib ularning soni 3567,3 ming nafarni, 2030 yilga kelib 3631,9 ming kishini 2035-yilga borib, 3738,3 ming nafarni tashkil etadi.

2023-yil boshiga respublikada 29420 ta maktabgacha ta'lim muassasasi mavjud bo'lib, ulardagi tarbiyalanuvchilar soni 2,1 million nafarni tashkil etgan (qamrab olish darajasi 71,8%).

3-6 yoshli bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish bo'yicha mavjud ko'rsatkichlarni saqlab qolish, shuningdek, kelajakda dunyoning rivojlangan mamlakatlari (90% ga yaqin) ko'rsatkichlariga erishish uchun respublikaning barcha hududlarida maktabgacha ta'lim muassasalarida 1264 ming bolaga mo'ljallangan yangi o'rinlarni tashkil etish zarur bo'ladi.

2022/2023 o'quv yilida jami o'quvchilar soni 6461,7 ming nafarni, o'qituvchilar soni esa 540,7 ming nafarni (o'rindoshlardan tashqari) tashkil etdi, ya'ni har bir o'qituvchiga 11,9 nafar o'quvchi to'g'ri keldi.

2022/2023 o'quv yilida umumta'lim maktablarini jami 430 ming nafar o'quvchi tamomladi. 2022/2023 o'quv yilida 701,9 ming nafar bola 1-sinfga qadam qo'ydi. 2035-yilga borib, 7-17 yosh oralig'idagi bolalar soni 9737,4 ming nafar bo'lishi kutilmoqda. Bu esa 2035/2036 o'quv yiliga qadar qo'shimcha 3,0 million o'quvchi o'rni yaratilishini talab etadi.

Har yili oliy ta'lim muassasalari mehnat bozoriga o'rtacha 30 ming nafar oliy ma'lumotli o'qituvchilarni chiqaradi. 2035-yilga borib, oliy ta'lim muassasalariga qabul



Date: 19th July-2026



darajasini 55% ga yetkazish va xotin-qizlar uchun ajratiladigan kvotalarni oshirish natijasida oliy ta'lim muassasalari har yili o'rtacha 40 ming nafar pedagog kadrlari tayyorlash imkoniyatiga ega bo'ladi. 2035-yilga borib, o'qituvchilar soni 970 ming nafarni tashkil etadi. Natijada har bir o'qituvchiga 10 nafar o'quvchi to'g'ri keladi. Ushbu hisob-kitoblarga asoslanib aytish mumkinki, yaqin kelajakda o'qituvchilarga talab yuqori bo'ladi. Lekin shunga qaramay ularning yetishmasligi kuzatilmaydi.

Xulosa qilib aytganda, aholi sonining nisbatan yuqori sur'atlarda oshib borishi mamlakat iqtisodiyoti uchun keng imkoniyatlar yaratadi. O'z navbatida kutilayotgan yuqori demografik salohiyatning ta'sirini bilgan holda quyidagi chora-tadbirlarni ko'rish zarur:

Demografik yukning ortib borishini hisobga olgan holda ta'lim tizimini boshqarish va rivojlantirish borasida mutlaqo yangi yondashuvlarni ishlab chiqish talab etiladi. Bunda real vaziyat hamda imkoniyatdan kelib chiqib, mamlakatimizdagi va xorijiy investorlarning ta'lim sohasidagi integratsion salohiyatini jalb qilish muhim ahamiyatga ega.

Fiskal yukni yengillashtirish maqsadida ta'lim sohalarida xususiy ishtirokchilar bilan tizimli ish olib borish, ularga litsenziya va boshqa ruxsatnomalarni berish tartibini soddalashtirish.

Xalq deputatlari viloyat Kengashi a'zolari budget mablag'larini taqsimlash va hududlarning ijtimoiy infratuzilmasini o'rta muddatli rejalashtirishda demografik rivojlanish prognozlarini hisobga olishi zarur.

Ta'lim sohalarida xalqaro va mahalliy ishtirokchilar, shuningdek, tegishli texnologiyalarni yetkazib beruvchilar O'zbekistonga sarmoya kiritish borasidagi qarorlarni qabul qilishda demografik prognozlarni inobatga olgan holda, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlariga o'rta muddatli talab mavjud ekaniga ishonchi komil bo'lishi mumkin.

Ta'lim sohasidagi islohotlar va kelajakdagi hamkorlik masalalarini rivojlantirish hamda O'zbekistonni 2030 yilgacha PISA bo'yicha dunyoning top-30 ro'yxatiga kirishni maqsad qilgan ekan, ta'lim transformatsiyasi va xalqaro hamkorlikning ahamiyatiga alohida e'tibor qaratilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni 23.09.2020 y. N O'RQ-637, Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2020 yil 24 sentabr, "Xalq so'zi", 2020 yil 24 sentabr, "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2020 yil 28 sentabr, 37-38-son, 419-modda.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026 yillarda Oliy ta'limni rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi 2022 yil 11 maydagi PF-134-son Farmoni.

Date: 19th July-2026

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi 2023 yil 28 fevraldagi PF-27-son Farmoni.
5. R.X.Djuraev, S.T.Turg‘unov. Ta’lim menejmenti. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, “Vorish-Nashriyot” – 2006.
6. Sh.Qurbonov, E.Seytxalilov. Ta’lim sifatini boshqarish. T.: “Turon-Iqbol”: 2006. – 592 bet
7. Shodiev X, Xabibullaev I. “Statistika” T. “Moliya-iqtisod” 2013.
8. A.Radjiev, F.Karimov, A.G.Ibragimov. TALIS-2018 xalqaro tadqiqotlari talablari asosida o‘tkazilgan so‘rovnoma va tadqiqot hisobotining ma’lumotlar to‘plami 1-2-to‘plamlar // A.Avloniy nomidagi xalq ta’limi muammolarini o‘rganish va istiqbollarini belgilash ilmiy-tadqiqot instituti. – Toshkent, 2022 yil.
9. www.uzedu.uz
10. www.stat.uz
11. <https://ru.wikipedia.org/wiki>
12. <https://www.statistics.com>